

# Hijobim

*#O'tmish-hotiralarni varoqlab*



BINTYUNUS

# Hijobim

## *#O'tmish-hotiralarni varoqlab*

2005-09-02

Adashmasam, 2005-chi yillar edi o'sha vaqtlar. Maktab yoshiga ham endigina kirib kelgan ediku, ammo bir muammo anchadan beri qiynardi . Maktabga hijob ila kirgizishmas edi, bu aniq va tiniq bo'lgan qonun edi. Tezlik ila siqib kelyapkan bu jamiyatda tobora yashashni imkoni ham qolmayapkandi. Asta sekin insonlar harakatga tushar edi, dinini erkinlik ila bajara olmayatganligi tufayli dunyoning qaysi yerida din erkinligi bor bo'lsa ushayerga ketishga tayyor turardi. Asta sekin soqolli insonlarni qamal qildi, "mua'allim-soniy"(arab harflarni o'rgatuvchi kitobcha), joynamoz hamda dini kitoblarni mavjud bo'lgan uylarni tezkorlik ila tekshirishar, uni olib kirib ketar va sudhonada sudlanuvchining bo'yniga "uyida joynamoz topildi", "arabtili-kitobchasi topildi" degan ayblovlarni qo'yaolmasdan uning ziddi bo'lgan tuhmatlar va boshqalar qilgan eng qabih ayblovlarni ustiga yuklatib 10-15 yillarga qamab yuborar edi. Albatta achinarli holat edi, chunki usha davrda yahudiylar va nasroniylar ham biz bilan birga bir davlatda yashab uyida injil kitobi bormi yo'qmi deya uni uyini tintuv qilinmas edi. Yahudiylar uchun din erkinligi bor edi. Nasroniylar uchun din erkinligi bor edi. Ammo eng ko'p musulmonlardan tashkil topgan bu davlatda musulmonlar uchun bu qonunga rioya qilinmas edi.

Usha vaqtlar judaham yosh edik, huddi nihol kabi, hijobga bo'lgan muhabbatimiz ham huddi shunday edi. Muhabbat urug'larini Otajonimiz qalbimizga kichikligimizdan solib qo'ygan edilar. O'tmish hotiralarni varoqlar ekanman shuncha hotiralarning ichidan birginasi qattiq eslanib qolingan edi.

Maktabning 2-chi kunini opam bilan birgalikda borishimiz kerak edi.

1-kun avval Jannat haqida so'zlab berishdi, Allohga itoatkor bo'lgan qizchalarni Alloh O'z jannatida uchar otlar ila mukofotlashligini o'zining katta, ulkan bo'lgan qasrlari bo'lishligini va undanda ko'proq kiyimlari berilishligi haqida aytib berishgan edi.

Biz kelasi kuni o'z ixtiyorimiz ila kichkinagina hijobchani kiyib maktabga yo'l oldik. Maktab eshiklariga kirar ekanmiz bir o'qutuvchi bizni ushlab olar va direktirning honasiga yo'lladi. Direktir bo'lsa bizni bo'rilar kabi qarshi oldi, yosh bolalar ekanligimizni anglamadimi o'sha vaqt bilmadimu ammo katta insonlarga gapiradigandek bizga baqirdi. eng esda qolarlisi "Ota-onang senlarga majburlab kiygizib qo'yganligini yahshigina bilaman" deya tuhmatlarni qildida kimdirga tel qildiirib chaqirtirdi. Men ushanda 6-7 yosh orasida edim, judaham qo'rqgandim va o'sha vaqt meni majburlab yechtirdi so'ngra yeg'lab yubordim. Men yugurib chiqib uyga qochdim va opam direktir honasida qolib kettilar, chunki yechishdan bosh tortgan edilar.

Uyga kelib onamga bo'lgan voqealarni aytib berdim va onamlar shoshilinch ila maktabga yo'l oldilar. Kelgunlaricha Allohga duo qilib o'tirganim hamon esimda.

Lekin bunday hodisalar ko'pga surilmadi. Allohni izni ila Yevropa davlatlariga tavakkul qilib chiqib kettik. Adajonim undanda yahshi ish topdilar, onajonim bemalol hotirjamlik ila uyda o'tiraoldilar, eng muhimi biz maktablarda kichik yoshimizga qaramasdan bemalol istagan kiyimimizni kiyaoldik. Hechkim bizdan buni tortib olmadi. Hechkim qo'lini uchini hijobimizga teginmadi. Hechkim bizni hijobimiz tufayli kamsitmadi. Hechkim bizni haqorat qilib hijobimiz tufayli tuhmat qilmadi. Alhamdulillah.

Ammo hozir o'z din erkinligini bajaraolmayotganlar qancha. Tezlik ila musulmonlarning haqlari paymol qilinyapdi. Inson bo'laturib bir makonda yashash mushkul bo'lib qolmoqda. Ammo Islom dini bir makonning qonunlariga qarab o'zgarmaydi. Islom Islomligicha qolaveradi. Allohning yeri keng! O'lim farishtalari insonlarning jonini olishga kelganlarida ularga bergan savolini Alloh ta'lo O'z Quronida bayon qilib aytadiki: "**«Nima qilayotgan edinglar?» derlar. Ular: «Yer yuzida bechora edik», derlar. Ular: «Allohning yeri keng edi-ku, hijrat qilsangiz bo'lmasmidi?!» derlar.»**". Niso 97-oyat.

Ey Inson bolasi! Rizqdan hargiz qo'rqma vaholanki Robbimiz: "**Biz sendan rizq so'ramasmiz. Biz senga rizq berurmiz.**" deya Rizqingni Alloh o'z zimmasiga olib bo'lgan. (Toha:132)

Ey Inson bolasi Alloh meni kechiradi deya tavbangni hargiz surma, Tavbangdan avval ajaling yaqin bo'lishi mumkun vaholanki Robbimiz: **”Har bir ummatning ajali bor. Ajallari kelgan vaqtida biror soatga ketga ham, oldinga ham sura olmaslar.”**(Ali-A'raf:34)

Ey Inson bolasi! Allohga butun boring ila tavakkul hamda taqvo qilabil vaholanki Robbimiz: **”Ey iymon keltirganlar! Allohga haqiqiy taqvo ila taqvo qiling. Va faqat musulmon holingizdagina bu dunyodan o'ting.”** deya amr etdi. (Ali-imron:102)

Ey Inson bolasi bilgingki Musulmon holatda o'tmoqlik uchun Alloh va Uning Rasuli buyirganlarini qilib qaytariqlaridan qaytish ila hayoting davomida doimiy ravshda qilishing kerak bo'ladi vaholanki Robbimiz: **”Kim Allohga va Uning Payg'ambariga itoat etsa hamda Allohdan qo'rqib, Unga taqvo qilsa, bas, ana o'shalargina yutuqqa erishguvchilardir..”** deya hitob qilgandir.

Hijoblanish va o'z ziynatlarini berkitish Allohning buyruqlaridandir vaholanki Robbimiz: **”Sen mo'minalarga ayt: Ko'zlarini tiysinlar, farjlarini saqlasinlar va ziynatlarini ko'rsatmasinlar,”** deya amr etgandir. Mo'mina-muslima ayol sharafini saqlash uchun Allohning amriga itoat etib, avratini nomahram erkaklardan berkitmog'i kerak. (Nur:24)

Va hargiz unitmaki: **”Albatta, taqvodorlarga yutuq bordir:”** (An-Naba:31)  
Vassalamu a'laykum va rahmatullah!

*Bint Yunus*